

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI (BUXORO VILOYATI MAHALLAR MISOLIDA)

Yuldashova Qunduz Bozorovna

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Telefon: +998(91)4160639

kunduzbazarovna85@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21774113>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni fuqarolar yig'inlari va mahallalar faoliyatining normativ-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutining konstitutsiyaviy asoslari, uni tartibga soluvchi qonunlar hamda boshqa huquqiy hujjatlarning ahamiyati yoritiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi, ular mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal etishi belgilangan. Tadqiqotda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi, vakolatlari, tashkil etish tartibi va davlat bilan o'zaro munosabatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun ushbu sohadagi asosiy normativ-huquqiy manbalardan biri sifatida fuqarolar yig'inlari faoliyatini tartibga solishi ta'kidlanadi. Mahalla instituti O'zbekistonda aholining ijtimoiy faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratini ta'minlash va hududiy muammolarni hal etishda muhim o'rin tutadi. Amaldagi huquqiy tizim mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga kengroq vakolatlarni berish, ularning mustaqilligini ta'minlash hamda davlat tomonidan zarur tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, fuqarolar yig'ini, o'zini o'zi boshqarish, normativ-huquqiy asoslar, Konstitutsiya, mahalliy boshqaruv, jamoatchilik nazorati.

Abstract: This article analyzes the regulatory and legal framework for the activities of local self-government bodies, namely citizens' assemblies and neighborhoods in Uzbekistan. It highlights the constitutional foundations of the institution of citizens' self-government, the importance of laws and other legal acts regulating it. The Constitution of the Republic of Uzbekistan stipulates that citizens' self-government bodies are not part of the system of state authorities, and they independently resolve issues of local importance. The study examines the legal status, powers, organization procedure and interaction of local self-government bodies with the state. It is also noted that the Law "On Citizens' Self-Government Bodies" regulates the activities of citizens' assemblies as one of the main regulatory and legal sources in this area. The neighborhood institute plays an important role in Uzbekistan in increasing the social activity of the population, ensuring public control and solving territorial problems. The current legal system is aimed at granting broader powers to local self-government bodies, ensuring their independence, and creating the necessary organizational and legal conditions by the state.

Keywords: neighborhood, citizens' assembly, self-government, regulatory and legal framework, Constitution, local government, public control.

Аннотация: В данной статье анализируется нормативно-правовая база деятельности органов местного самоуправления, а именно гражданских собраний и кварталов в Узбекистане. Выделяются конституционные основы института гражданского самоуправления, важность законов и других правовых актов,

регулирующих его деятельность. Конституция Республики Узбекистан предусматривает, что органы гражданского самоуправления не являются частью системы государственной власти и самостоятельно решают вопросы местного значения. В исследовании рассматривается правовой статус, полномочия, организационный порядок и взаимодействие органов местного самоуправления с государством. Также отмечается, что деятельность гражданских собраний регулируется Законом «О органах гражданского самоуправления» как одним из основных нормативно-правовых источников в этой области. Институт квартала играет важную роль в Узбекистане в повышении социальной активности населения, обеспечении общественного контроля и решении территориальных проблем. Действующая правовая система направлена на расширение полномочий органов местного самоуправления, обеспечение их независимости и создание государством необходимых организационно-правовых условий.

Ключевые слова: район, гражданское собрание, самоуправление, нормативно-правовая база, Конституция, местное самоуправление, общественный контроль.

O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvida mahallaning an'anaviy ijtimoiy tuzilma sifatidagi rolini oshirish borasida talay islohotlar amalga oshirilib, uni dunyoda o'xshashi yo'q o'zini o'zi boshqarish tuzilmasi darajasiga ko'tarish borasida samarali ishlar qilindi. Ayniqsa o'zini o'zi boshqarish organlarida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni kuchli ijtimoiy himoyalash, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy choralar ko'rish huquqiga ega tuzilma darajasiga ko'tarish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa aholiga mahalliy boshqaruv jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniyatini bermoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi kerak. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylar, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodirdir. Shu jihatdan mahallaning "faol" modelini yaratish, "ijtimoiy mahalla" kontseptsiyasini ishlab chiqish, mahalla boshqaruvini raqamlashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga implemantatsiya qilish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ob'ektiv zaruratga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagi PF-4944-son «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018 yil 27 iyundagi PF-5467 – son "Obod mahalla" dasturi to'g'risida"gi, 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938 - son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PQ - 4602-son "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslari mamlakat Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga

solinadi. Ushbu huquqiy baza mahalla institutining mustaqil faoliyat yuritishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomini belgilab bergan asosiy huquqiy manba hisoblanadi. Konstitutsiyaning 127-moddasiga muvofiq, shaharchalar, qishloqlar, ovullar hamda mahallalarda fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanadi. Ular davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni qonunga muvofiq mustaqil hal etish huquqiga ega. Shuningdek, davlat ushbu organlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi va ularning qonuniy vakolatlarini amalga oshirishga ko'maklashishi belgilangan. Mahalla institutining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi muhim qonunlardan biri — «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonundir. Unda fuqarolar yig'inlarining huquqiy maqomi, faoliyat prinsiplari, tashkiliy tuzilmasi, rais (oqsoqol)ni saylash tartibi, vakolatlari hamda fuqarolar yig'inlari kengashi va komissiyalarining vazifalari belgilangan. Qonunga muvofiq, mahalla aholi manfaatlarini ifoda etuvchi va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etuvchi mustaqil jamoat instituti sifatida faoliyat yuritadi. Mustaqillik yillarida mahalla tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator Prezident farmonlari va qarorlari qabul qilinib, mahallalarning ijtimoiy himoya, oilalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish sohasidagi vazifalari kengaytirildi. Bu islohotlar mahalla institutini davlat va jamiyat o'rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmiga aylantirishga xizmat qildi. Bugungi kunda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati «Inson qadri uchun» tamoyili asosida takomillashtirilmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat xizmatlari bilan integratsiyani kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish hamda aholining muammolarini mahalla darajasida hal etishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Shunday qilib, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining normativ-huquqiy asoslari Konstitutsiya va sohaviy qonunlar bilan mustahkamlangan bo'lib, ular mahalla institutining mustaqilligi, samaradorligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi o'rnini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Buxoro viloyatida yosh ijrochilarning "Shashmaqom" respublika festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi qarori maqom san'atini rivojlantirish, ayniqsa yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Festivalning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o'zbek musiqa ijrochiligi madaniyatini yanada yuksak darajaga ko'tarish, milliy maqomsan'atini dunyo sahnalariga olib chiqish, iqtidorli yoshlarni kashf etish, rag'batlantirish va ularningijodini targ'ib etish;

yosh maqom ijrochilarining iste'dodi va ijodiy qobiliyatini namoyon etish, ularning ijrochilikko'nikmalarini yanada rivojlantirish;yoshlar orasida maqom san'atiga bo'lgan qiziqishni oshirish;

"Shashmaqom" san'atining tarixiy an'alarini asrash va targ'ib etish, keng ommalashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish;

o'zbek milliy maqom san'atining nufuzini yanada oshirish hamda dunyo sahnalariga olibchiqish va targ'ib etish;

yoshlarning o'zbek milliy maqom san'atiga qiziqishini oshirish, o'ziga xos ijro maktablari vaan'analarni yangi bosqichga ko'tarish, uning "Oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro

nufuzini oshirish va keng targ'ib qilish; qadim Buxoroning turizm yo'nalishidagi salohiyatini namoyish etish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish, sayyohlar oqimini oshirish;

o'zbek xalqining madaniyatini, xususan, betakror maqom san'atini, shu jumladan, Festival doirasida hunarmandchilik ko'rgazmalari, tasviriy va amaliy san'at asarlari, qadriyatlar va an'analarini keng targ'ib etish;

“Shashmaqom” san'ati bilan xalqimizning boy tafakkuri va ezgu intilishlari natijasida bunyod etilgan va etilayotgan ma'naviy merosimizni asrab-avaylash; o'ziga xos maktablarni yaratgan maqom san'ati ustozlari tajribasini ommalashtirish, “Ustoz-shogird” an'alarini qo'llab-quvvatlash va keng yoyish;

“Shashmaqom” asarlari orqali millatlararo do'stlik, totuvlik va hamjihatlik g'oyalarini ilgari surish va tarannum etish¹. Ushbu festival orqali yosh ijrochilarning mahorati, ijodiy qobiliyati va iste'dodini namoyon etishlari uchun imkoniyat yaratiladi. Qarorning asosiy maqsadi — yangi iste'dodlarni kashf etish, yosh maqom ijrochilarini rag'batlantirish, ustoz san'atkorlarning boy tajribasini keng targ'ib qilish hamda milliy musiqa merosini kelajak avlodlarga yetkazishdan iborat. Festival “Shashmaqom” san'atining nufuzini oshirish, yoshlar orasida ushbu an'anaviy san'at turiga qiziqishni kuchaytirish va ijodiy maktablarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Buxoroda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining normativ-huquqiy asoslari jamiyat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mahalla instituti fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimi sifatida aholining manfaatlarini ifodalash, hududiy masalalarni hal etish hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, Prezident farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi hujjatlari asosida tartibga solinishi aniqlandi. Ushbu huquqiy asoslar mahalla fuqarolar yig'inlarining vakolatlari, tashkiliy tuzilmasi, fuqarolar bilan ishlash mexanizmlari va davlat organlari bilan hamkorlik yo'nalishlarini belgilab beradi. Buxoro viloyati mahallalari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalla tizimi aholining ijtimoiy muammolarini hal etish, yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, obodonlashtirish ishlarini tashkil etish, kam ta'minlangan oilalarga ko'maklashish hamda fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishda samarali faoliyat olib bormoqda. Shu bilan birga, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun ularning mustaqilligini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish va fuqarolarning mahalla hayotidagi ishtirokini kengaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonda mahalla instituti fuqarolik jamiyatining muhim bo'g'ini sifatida shakllanib, davlat va jamiyat o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlovchi noyob boshqaruv modeli sifatida rivojlanmoqda. Buxoro viloyati mahallalari tajribasi esa ushbu tizimning hududiy rivojlanish va aholi farovonligini ta'minlashdagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2023.

¹ Buxoro viloyatida yosh ijrochilarning “shashmaqom” respublika festivalini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.11.2021 yildagi 685-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5731882>

2. Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, «O'zbekiston ovozi». T., 1992 y. 13 sentabr;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Obod mahalla" dasturi to'g'risida"gi PF-5467-sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. T., 2018.
4. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni// Qonun hujjatlari to'plami. T., 1995.